

Regional Features of Organizing Economic Clusters

Kadirov San'at Yuldashevich

Senior Lecturer, Department of Economics, PhD Urganch Ranch University

Abstract. This article discusses the need for the formation of economic clusters, their specific priorities and their regional characteristics. It also provides a conclusion on the study of the regional characteristics of the formation of economic clusters.

Key words. Cluster, economic cluster, direction, resource, efficiency, policy, innovation.

IQTISODIY KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

**Kadirov San'at Yuldashevich, Urganch Ranch universiteti "Iqtisodiyot"
kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD**

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy klasterlarni tashkil etish zaruriyati, o'ziga xos ustuvorliklari va ularning mintaqaviy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy klasterlarni tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari tadqiqi yuzasidan xulosa yoritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость формирования экономических кластеров, их конкретные приоритеты и региональные особенности. Также приводятся выводы по результатам исследования региональных особенностей формирования экономических кластеров.

Kalit so'zlar. Klaster, iqtisodiy klaster, yo'nalish, resurs, samaradorlik, siyosat, innovatsiya.

Ключевые слова. Кластер, экономический кластер, направление, ресурс, эффективность, политика, инновации.

Klaster yondashuvi ilk bor Maykl Porter tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, u hududiy iqtisodiy rivojlanishda klasterlarning rolini ta'kidlagan. Bu bo'yicha

klasterlarning muhim shakli iqtisodiy klasterlar bugungi kunda iqtisodiy tarmoqlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy tarmoqlarda shakllanadigan ushbu klaster ishlab chiqarishni xususiyashtirish va globallashtirish sharoitiga mos kelmaydigan tamoyil o‘rniga jahon va milliy iqtisodiyotlarni tabaqalashtirishning yangi tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish sanoat tarmoqlari kesishgan joyda yangi ixtisoslashgan tarmoqlarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Unga asosan, klasterlarga birlashishga qaror qilgan institutlarning rejalashtirilgan natijalari, darajasi, mezonlari va samaradorlikni belgilaydigan rivojlanish dasturi bo‘lishi lozim [1].

Iqtisodiy klaster ma‘lum bir hududda joylashgan, o‘zaro bog‘liq korxonalar, ta‘lim muassasalari, ilmiy markazlar va infratuzilma ob‘ektlarining integratsiyalashgan tizimidir. Iqtisodiy klasterlar iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni joriy qilish va mahalliy resurslardan samarali foydalanishda muhim o‘rin tutadi. Mintaqalar iqtisodiyotida iqtisodiy klasterlarning rivojlanishi qator afzalliklarga ega bo‘ladi. Buning uchun hududlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi farovonligini oshirish va rivojlanishning innovatsion yo‘lini joriy etish lozim [2]. Ushbu iqtisodiy klaster mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur yo‘nalish sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu borada bugungi kunda ushbu klasterlar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta‘minlovchi mexanizm hamda iqtisodiy o‘shish drayverlari bo‘lib hisoblanmoqda [4].

Iqtisodiy jihatdan klasterlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya xarajatlarni kamaytiradi, resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi va mahsulot raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, hududiy jihat klasterlarning muhim xususiyati bo‘lib, ularning ma‘lum bir geografik hududda joylashishi logistika qulayligini ta‘minlaydi va o‘zaro aloqalarni tezlashtiradi. Iqtisodiy klasterlar orqali korxonalar o‘rtasida kooperatsiya kuchayadi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va mahsulot sifati oshadi. Shunga asosan, iqtisodiy

klasterlarni tashkil etishda har bir hududning quyidagi o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi:

- tabiiy-iqtisodiy omillar.
- geografik joylashuv.
- demografik omillar.
- infratuzilma.

Ammo, hududiy xususiyatlarga qarab iqtisodiy klasterlar tarkibi agrosanoat klasterlari (qishloq xo'jaligi va qayta ishlash), sanoat klasterlari (ishlab chiqarish korxonalari), turizm klasterlari (madaniy va tabiiy resurslardan foydalanish) va innovatsion klasterlar (ilm-fan va texnologiyalarga yo'naltirilganlik) kabi ko'rinishlarda mavjud bo'ladi. Mamlakatimizda iqtisodiy klaster siyosati so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda. Bu borada paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va turizm klasterlari shular jumlasiga kiradi. Mazkur klasterlar orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga erishilmoqda.

Fikrimizcha, iqtisodiy klasterlarni tashkil etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, innovatsiyalar tez joriy etiladi va eksport hajmi ko'payadi. Ushbu sohadagi mavjud muammolarni hal qilish uchun davlat qo'llab-quvvatlashini kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va ta'lim va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xulosa shuki, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda iqtisodiy klasterlarni tashkil etish hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy klasterlar hududiy rivojlanishning samarali mexanizmi bo'lib, ular raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni joriy qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu klasterlar ko'p qirrali tizim bo'lib, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va



tashkiliy jihatlari o‘zaro uyg‘un holda rivojlanganda hududiy iqtisodiyotning barqaror o‘shiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mardonov F.Sh. Oliy ta’limni rivojlantirishda klasterning o‘rni. // Academic research in educational sciences, Volume2, Issue4, 2021. - 714 b.
2. Elza I. Mantaeva, Viktoriya S. Goldenova. On the role of industrial cluster in regional economy development. // [Science Journal of VolSU. Global Economic System, 2017, Vol. 19, №1 \(38\)](#). – p. 45.
3. <https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/cluster>

